

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-4>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Toshbekova Manzura Majit qizi METAPHORICAL COGNITIVE MODEL OF THE FORMATION OF FIGURATIVE MEANINGS.....	5
2. Zakirova Madina Damirovna MAIN TASKS OF COGNITIVE - PRAGMATIC STYLISTICS.....	10
3. Ходжиева Гульчехра Норовна АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ГЕНДЕРНОЙ КОММУНИКАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ИТАЛЬЯНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	17
4. Хулкар Ҳамроева, Озодахон Мусаева ҚОҶОФИСТОНДА ЯШАБ ИЖОД ҚИЛАЁТГАН ЎЗБЕК ШОИРЛАРИ АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	21
5. Faleeva Anastasiya Vadimovna ENGLISH SPOKEN WORDS AND EXPRESSIONS IN THE PERSPECTIVE OF “DICTIONARY OF SLANG” IN A LEVEL VIEW.....	35
6. Tursunov Mirzo Maxmudovich, Tursunov Mirzo Makhmudovich, Турсунов Мирзо Махмудович MEDIAMATNNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK HAMDA MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O'RNI TAHLILI.....	43
7. Toshtemirov Farhod ИНТЕРНЕТ МУЛОҚОТНИНГ НОВЕРБАЛ ВОСИТАЛАРИГА ДОИР.....	48
8. Yakubova Habiba Otabayevna FAVQULOTDA VA KUTILMAGAN OFATLARNING BADIY ADABIYOTDAGI TASVIRI.....	53
9. Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi LISONIY BIRLIKLARNI TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI.....	60
10. Abdirazakova Zilola Kulmurotovna FRAZELOGIZMLAR VA LEKSEMALAR HAMDA ULAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	68
11. Saydullayeva Surayyo Serajiddinovna PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TRANSFORMATSIYASI.....	73
12. Ahmadjonov Muhammadjon O'ZBEKISTON MATBUOT NASHRLARI VA BLOGOSFERASIDA BANK-MOLIYA MAVZUSI TALQINI.....	80
13. Sharipova Sarvinoz Sayfiddin qizi LINGUOCULTURAL FEATURES OF IDIOMS IN THE UZBEK LANGUAGE.....	86
14. Komilova Farangiz Bahriddin qizi, Axmedov Anvar Botirovich HOZIRGI NEMIS TILIDA SO'Z MA'NOSINING O'ZGARISHI.....	90
15. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O'ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	96
16. Rakhmonova Sardora Muminjanovna THE FUNCTION OF LEXICAL UNITS IN THE LANGUAGE AND THEIR USE AS PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH ECONOMIC SPEECH.....	102
17. Achilova Ozoda Farxodovna HURMAT KATEGORIYASINING MULOQOT SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDAGI MOHIYATI.....	108
18. Istamova Shoxista Rustamovna O'QUVCHILARNING MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MATNGA ASOSLANGAN VA IJODIY USULLARDAN FOYDALANISH O'RTASIDAGI FARQLAR.....	112

19. Rahimov Ahmad Sultonovich, Muxtorov Abdumalik Egamberdiyevich KOREYS TILSHUNOSLIGIDA SO‘ZLAR TURKUMLARI NAZARIYASINING SHAKLLANISH TARIXI HAQIDA.....	116
20. Dushanova Nargiza Mamatkulovna METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF HIGHER- ORDER COGNITIVE COMPETENCIES OF LANGUAGE LEARNERS.....	122
21. Bo‘riyeva Nargiza Qo‘chqarovna J.R.R.TOLKINNING KONSEPTUAL DUNYOQARASHI: TIL, MIFOLOGIYA VA MADANIYAT.....	130
22. Turayeva Feruza Tuxtamuradovna NODAVLAT MATBUOT NASHRLARIDA AXBOROT UZATISHNING INTERAKTIV USULLARI.....	137
23. Axtamova Yodgora Ashrafovna INGLIZ TILIDA INXOATIV FE‘LLAR SEMANTIKASI.....	144
24. Yaxyoqulova Nigora Shuxratovna FRANSUZ TILIDAGI JAZOIR AVTOBIOGRAFIK ROMANINING UMUMIY O‘ZIGA XOSLIGI.....	150
25. Rustamova Shahnoza Aripovna SELF-ASSESSMENT AS AN ALTERNATIVE ASSESSMENT METHOD IN LANGUAGE LEARNING.....	156
26. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Jo‘raqulova Madina Subhonovna FORMAL GRAMMATIKANING VUJUDGA KELISHI UCHUN ASOS BO‘LGAN STRUKTUR TAHLIL METODLARI TAHLILI.....	162
27. Juraqobilova Hamida Xolmatovna FRANSUZ NASRIDAGI KOGNITIV METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (Patrik Modianoning “Voyage de nocte” asari misolida).....	170
28. Azimova Parizod Azamat qizi KOREYS XALQ MAQOLLARIDA AYOL KANSEPTINING AKS ETISHI.....	175
29. Diyarov Akmal To‘lqin o‘g‘li O‘ZBEK TILIDAGI BOG‘DORCHILIK TERMINLARINING STATISTIK TAVSIFI.....	181
30. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	186
31. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	191
32. Qodirova Zebo Gulboyevna TEZAURUS, WORDNET, ONTOLOGIK MA‘LUMOTLAR BAZASIDA SEMANTIKA TAVSIFI.....	201
33. Abdukhakimova Kamola, Abdulloyeva Malikabonu DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH TECHNIQUES OF STUDENTS OF PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF A COMPETENCY APPROACH.....	208



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

LISONIY BIRLIKLARNI TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562457>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lison, nutq va til hodisalarning bir-biridan farqi, ularning bir-biriga bog'liqligi, tilshunoslikdagi o'rni, o'zbek va jahon tilshunosligida ularning o'rganilishi bayon qilingan. Shuningdek, lisoniy birliklar, ularning lingvistik tavsifi, lisoniy birliklar haqida turli olimlarning fikr va mulohazalari ham maqoladan joy olgan. Lisoniy birliklarga kiruvchi fonema, morfema, qolip atamalariga keng tadqiq etilgan. Lisoniy birliklar atamasi va u o'z ichiga olgan birliklar tilshunoslikda hanuzgacha bahsli masala hisoblanib, ushbu maqola bu birliklarni kengroq o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: lisoniy birlik, nutq, til, lison, morfema, fonema, qolip, sistem-struktur tilshunoslik

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab kizi

Doctoral student of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

STUDY OF LINGUISTIC UNITS IN LINGUISTICS

ABSTRACT

This article describes the differences between language, speech and language phenomena, their interdependence, their place in linguistics, and their study in Uzbek and world linguistics. Linguistic units, their linguistic description, opinions and comments of various scientists about linguistic units are also included in the article. The terms phoneme, morpheme, pattern included in the linguistic units have been widely researched. The term linguistic units and the units it includes are still considered a controversial issue in linguistics, and this article is devoted to a broader study of these units.

Key words: linguistic unit, speech, language, language, morpheme, phoneme, pattern, system-structural linguistics.

Зиядуллаева Мадина Махмареджаб кизи

Докторант Самаркандского государственного института иностранных языков

ИССЛЕДОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны различия между языком, речью и языковыми явлениями, их взаимозависимость, их место в языкознании, их изучение в узбекском и мировом языкознании. Также в статью включены лингвистические единицы, их лингвистическое описание, мнения и комментарии различных ученых о языковых единицах. Термины фонема, морфема, образец,

входящие в состав языковых единиц, широко исследованы. Термин «языковые единицы» и входящие в него единицы до сих пор считаются дискуссионным вопросом в лингвистике, и данная статья посвящена более широкому изучению этих единиц.

Ключевые слова: языковая единица, речь, язык, язык, морфема, фонема, образец, системно-структурная лингвистика.

Hozirgi davrga kelib til, nutq, lison tushunchalarini bir-biridan farqlab tadqiq qilishga bo'lgan harakatlar yangicha tus oldi. Bunga asosiy sabab matn va uni yanada chuqur o'rganishga bo'lgan so'nggi tadqiqotlardir desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi tilshunoslik tadqiqotlari markazida matn turar ekan, uni tashkil etuvchi birliklar, ularning bir-biridan farqlari, ular o'rtasidagi munosabatlar olimlarni qiziqtirishi tabiiy. Tilshunoslik ham boshqa barcha sohalar singari doimiy taraqqiyotda. Til taraqqiy etarkan, yechimini topish kerak bo'lgan yangi muammolar yuzaga keladi, mavjud nazariyalarni qayta ko'rib, yangi metod va usullar yordamida tadqiq qilishga ehtiyoj seziladi. Bunday muammolardan biri lisoniy birliklar ulrning boshqa birliklardan farqi masalasidir.

Tilshunoslikda til, lison, nutq hodisalarini bir-biridan farqlash tilshunoslikning katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bu uchala hodisa bir-biriga uzviy bogliq, bir-birini taqoza qiladigan, shu bilan birga bir-biridan farqli hodisalar hisoblanadi. Til, lison, nutq hodisalarini bir-biridan farqlash, ularni psixik, funksional, fiziologik jihatdan alohida-alohida shaklda o'rganishga imkoniyat yaratdi. Hamma davrda har bir sohada bo'lgani kabi, tilshunoslikda ham muammolar, izohtalab masalalar ko'p. Bugungi tilshunoslikdagi muammolardan biri lisoniy birliklarini belgilash, ular o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishdir.

Uzoq yillar davomida til va nutq hodisasi hamma jihatdan bir-biridan aniq ajratilmadi. Nutqqa xos birliklar, hodisalar til birliklari va til hodisalari deb talqin qilindi. Tilshunoslikda til va nutq hodisalarini alohida bir-biridan farqlab yodashish dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida kuzatilgan. XX asr boshlarida Yevropa ilmiy-falsafiy ta'limotiga Fridrix Hegel dialektik usulining keng tarzda kirib borishi, fizikada to'ntarish hisoblangan Albert Eynshteyn nisbiylik nazariyasining shakllanishi va rivoji tilshunoslikka ham katta ta'sir ko'rsatdi – tildagi umumiy va xususiy jihatlarni farqlashga turtki bo'ldi. XX asrning 20-yillarida tilni barcha qirralarini birlashtirib, yaxlit bir butun, sistema sifatida o'rganuvchi sitem-struktur yo'nalishiga Ferdinand de Sossyur tomonidan asos solindi. V.Gumboldt, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene bu yo'nalishning rivojiga ulkan hissa qo'shishdi. Ferdinand de Sossyur til va nutq hodisalari, ularga xos birliklar, til va nutq birliklarining bir-biridan farqli jihatlarni ilmiy va amaliy jihatdan farqlab berdi. Bu hodisa tilshunoslikdagi avvalgi qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Shu sababdan bu hodisani ba'zi olimlar inqilobga teng hodisa sifatida baholashadi

Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarardi, chunki insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilar edi. Atamalarga esa, odatda, bir ma'nolilik xosdir. Shu sababli tilshunoslar lison atamasini fanga olib kirishga ehtiyoj sezilar. Lison so'zi arabcha so'z bo'lib, "til" degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda atama sifatida ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisini anglatadi. Lison atamasini fanga kirgizish fandagi ba'zi tushunmovchiliklarni yo'q qildi. Dunyodagi biror tilshunoslikda lison va nutq hamda ularning majmui o'zbek tilshunosligidagidek terminologik aniqlikda ifodalanmagan.

Umuman borliq uchun xos bo'lgan UMISning tildagi ko'rinishi lison, AHVOniki esa nutq deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui til deyiladi.

Nutq va lison tushunchasi haqida. Lison – ma'lum bir til jamiyatning barcha a'zolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo'yilgan, umumiy va majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash, uzatish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan vosita (birlik) lar hamda ularning o'zaro birikish qonuniyatlarining ongimizdagi sistemasini. Fonemalar, leksemalar, iboralar, morfemalar hamda ularning o'zaro birikish qoidalari bizdan oldingi til foydalanuvchilari tomonidan bizga me'ros sifatida

qoldirilgan. Ular haqida ma'lumot bizning ongimizda mavjud. Ongimizda tayyor lisonni biz nutqimizda qo'llash orqali voqelantiramiz. Shu e'tibordan, ongimizdagi lisonga xos birliklarni lisoniy birliklar, larni nutqda voqelanishi natijasida hosil bo'lgan birliklarni esa nutq birliklari deb ataymiz. Bu ikkalasini til birliklari nomi ostida birlashtiladi. Lison va nutq tilshunoslikda sath atamasi bilan yuritiladi. Demak, til lisoniy sath va nutqiy sathdan iborat. Har qanday lisoniy birlik virtual xususiyatga, ya'ni ongga mansub mavjudlik tabiatiga ega. Shu bilan birga, ular quyidagi ikki tomonning bir butunligidan iborat: a) shakliy jihat; b) mazmuniy jihat. Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud bo'lib, moddiylik unga xos emas. Aksincha, nutq birliklari moddiylikni taqoza qiladi.

Nutq - lisoniy birlikning jamiyat a'zolari ongida o'rnashgan me'yor asosida muayyan moddiy (yozma, og'zaki va h.) shakllardan birida voqelanishidir. Masalan, a fonemasi og'zaki nutqda eshitiladigan tabiatga ega bo'ladi, bu eshitilish tovushning baland/pastlik, cho'ziq/qisqalik, kuchli/kuchsizlik, urg'ulilik/urg'usizlik kabilarni o'z ichiga oladi. So'zlovchi fonemalarni nutq tovushiga qanday sharoitda qay tarzda aylantirish qoidalarini biladi va bu qoidalarni til jamiyatidan o'zlashtirib oladi. Ana shu qoidalar **me'yor** deyiladi.

Lison va nutq haqida gap ketar ekan me'yor tushunchasini chetlab o'tish imkonsiz. Lisoniy birliklar nutqda voqelanishi uchun ularni tanlash omil va usullari me'yor deyiladi. Shuningdek, me'yor bu - lisonning nutqqa aylanish sharoiti va muhiti desak ham bo'ladi.

Til katta va kichik belgilardan iborat sistema. Til sistemasi o'z ichida yana ikkita sistemaga ajraladi. Bular gomogen va geterogen sistemalar bo'lib, bir xil elementlarda iborat sistema gomogen, aksincha turli xil elementlardan tashkil topgan sistema esa geterogen sistema deb ataladi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, gomogen sistema nisbiy avtonom holatdagi til va nutq sathlari, geterogen sistema esa pog'anali munosabat qurshovidagi sathlar uchun xosdir.

Fonemaning lingvistik tavsifi. Tillar ierarxik tarzda tuzilgan. Gaplar so'z birikmalaridan, so'z birikmalari so'zlardan, so'zlar bo'g'inlardan, bo'g'inlar fonemalardan tashkil topgan. Lisoniy birliklar ichida eng kichigi fonema hisoblanadi. Fonemaning vazifasi ma'no farqlashdir. Masalan, o'zbek tilidagi **bola va lola**, rus tilidagi **стол va стул**, ingliz tilidagi **right va light** so'zlari **b-l**, **o-y**, **r-l** fonemalari orqali farqlanib, boshqa-boshqa ma'nolarni anglatadi. Garchi fonemaning talaffuzi turli kontekstlarda biroz farq qilsa-da, fonema nisbatan barqaror artikulyar va akustik xususiyatlarga ega. Fonema tushunchasi juda kengdir. Undan kompyuter lingvistikasida nutqning kompyuter modellarini yaratishda keng foydalaniladi. Ko'pgina zamonaviy katta lug'atli nutqni aniqlash va nutq sintezi tizimlari fonemalarning akustik xususiyatlarining statistic modellariga asoslanadi. Fonemalar nutq hosil qilishda miya faoliyatini modellashtirishda juda ham muhim hisoblanadigan lisoniy birlikdir.

Fonemalar ongimizda yakka holda mavjud bo'ladi. Hech qachon fonema ongda boshqa fonema bilan birikkan holatda bo'lmaydi. Har bir fonema so'zlovchilar ongida bir turdagi tovushlarning umumiy "akustikartikulyatsion portreti" yoki "tovushlar obrazi" sifatida saqlanadi.

Tilshunoslar fonemalar o'z ichida "farqlovchi xususiyatlar" ni o'z ichiga olishini ta'kidlashgan. Ko'pgina fonologik xusuiyatlar avval nutq tovushlarining xususiyatlari sifatida talqin qilingan. Taxminan XX asning o'rtalarida Yakobson va Xalle ma'noli birliklarni bir-biridan farqlay oladigan eng kichik til komponentlari ya'ni "farqlovchi xususiyatlar" tushunchasini fanga kiritishgan. Yakobson-Xalle farqlovchi xususiyatlarning har bir xususiyati ikkita nisbiy qiymatga egaligini aytishadi. Bugungi eng keng tarqalgan fonologiya adabiyotida qo'llanilgan farqli xususiyatlar tizimi asosan Xomskiy va Hallening "Ingliz tilining tovush na'munasi" (1968) kitobidan olingan. Xomskiy va Halle jami 27 ta farqli xususiyatni taklif qildi. Har bir xususiyat ikkita qiymatni oladi: ijobiy qiymat **[+]** xususiyat mavjudligini bildirsa, manfiy qiymat **[-]** uning yo'qligini bildiradi. Ularning xususiyatlari to'plami "universal" deb hisoblanadi, ya'ni ular "butun insoniyatning fonetik imkoniyatlarini ifodalaydi" va shuning uchun ular hamma tillarda bir xil. Har qanday fonema o'ziga xos xususiyatlar to'plami sifatida ifodalanishi mumkin. Bu bilan Xomskiy va Halle barcha tillarda fonemalarga xos xususiyatlar bir-biriga o'xshashligini ta'kidlashadi. Ya'ni, o'zbek tilidagi "k" ning xususiyatlari: uning undoshligi, jarangsizligi va boshqa xususiyatlari ingliz va rus tillaridagi "k" va "k'" ga o'xshaydi.

Fonema va tovushlarni o'rganish qadim o'tmishga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 4-asrlarda Hindistonda yashagan olim Panini o'zinging qarashlari bilan fonologiya va fonetika rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U tovushlarni unli va undosh tovushlarga ajratadi va ularning artikulyatsion xususiyatlarini batafsil bayon qiladi. U tovushlarning artikulyatsion o'rni va uslubini tasvirlashda sistematik yondashuvdan foydalangan. Panini tovush o'zgarishlari va fonologik jarayonlar uchun qoidalarini (so'z chegaralarida tovushlarning o'zgarishi va assimilyatsiya) ishlab chiqdi. Panining sanskrit tili grammatikasiga bag'ishlangan "Ashtadhyayi" kitobidan ta'sirlanib, Paninidan bir necha asr keyin yashagan Patanjali "Mahabhashya" deb nomlangan kitobini yozadi. Patanjali Panining fikrlarini yanada to'ldiradi, misollar va chuqur tahlillar bilan izohlaydi. U kitobida talaffuz va fonologik jarayonlarni batafsil bayon qiladi. Bu ikki olim nafaqat sanskrit tili balki zamonaviy tilshunoslik rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan. Ularning fikrlari hozirgacha fonologiya va fonetika uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Lotin faylasuflaridan Aflotun va Aristotel ham fonemani o'rganishgan. Garchi ular "fonema" atamasini ishlatmagan bo'lasalar-da, tovushlarning tabiati, ularning tillardagi ahamiyati xususida qiziqarli nuqtai nazarga ega edi. Aflotun tovushlar va ma'no o'rtasidagi munosabatni o'rgangan. U so'zlarning tovushlari o'zboshimchalik bilan emas, balki ular ifodalagan narsalar bilan tabiiy aloqaga ega degan fikrni ilgari surgan. Aristotel esa ko'proq empirik yondashuvdan foydalangan. U o'zining "Interpretatsiya haqida" asarida og'zaki tovushlar aqliy kechinmalarning, yozma belgilar esa og'zaki tovushlarning timsoli ekanligini bayon qilgan. Aristotelning asosiy e'tibori tovushlarning o'ziga xos xususiyatidan ko'ra ko'proq muloqotdagi vazifasi va ma'noni yetkazishdagi roliga qaratilgan edi.

Ikkala faylasuf ham zamonaviy fonologiyadagi fonemalarga asosiy e'tibor qaratmagan bo'lsa ham, keyingi tilshunoslik nazariyalariga ta'sir ko'rsatgan asosiy g'oyalarni ilgari surgan.

"Fonema" atamasining zamonaviy qo'llanilishini shakllantirishda Boduen de Kurtunening hissasi katta. U fonemani nutq tovushining psixologik ekvivalenti ekanligi va uning tilni ongda aks etishidagi rolini ta'kidlaydi. Boduen de Kurtun fonemalar tilda ma'no farqlovchi mavhum birlik ekanligini birinchilardan bo'lib fanga olib kirgan tilshunos hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslar Boduen de Kurtunening qarashlari Ferdinand de Sossyurning fonetik almashinish nazariyasiga asos bo'lganligini ta'kidlashadi. Dastlab, boshqa pionerlar singari Boduen "fonema" va "tovush" atamalarini bir-biridan yaqqol farqlamagan. Ba'zi o'rinlarda fonema va tovushni bir-birini o'rnida foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Boduen de Kurtunening shogirdi Mikolay Krushevskiy bu g'oyalarni yanada rivojlantirdi. U o'zining "Ovoz almashinuvi haqida" (1881) asarida "divergentlar" va "korrelyativlar" atamalarini kiritib, fonemaning strukturaviy ta'rifini taklif qildi. U fonologiyada sinxron yondashuvga urg'u berib, fonemalarning til ichida ma'lum bir vaqtda qanday ishlashiga e'tibor qaratadi. Ularning fonemalarga oid ishlari birgalikda zamonaviy fonologik nazariyaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, tildagi fonemalarning ham psixologik, ham strukturaviy jihatlarining ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Fonema ifodalanuvchi jihatga ega emas. Shu sababli, fonemalar belgi hisoblanmaydi. Lekin ba'zi olimlar, xususan, V.N.Golovin fonemani to'liq bo'lmagan, oddiy belgi deb ta'riflaydi. Olimning fikriga ko'ra, fonemaning ma'no farqlash xususiyati unga belgi maqomini berishga yetarli. Ammo, fonemani belgi deb atash mumkin emas, chunki ifodalanuvchisi bo'lmagan birlikni belgi deb atash F.de Sossyur ta'limotiga ham zid.

F.de Sossyur ta'limotida fonema til belgilari jumlasiga kiritilmagan chunki uning ma'no farqalash jihatini mustaqil ma'no ifodasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. V.N.Migirinning bu haqda aytgan mulohazasi diqqatga sazovordir: «Fonemani belgi deb hisoblash noo'rin, chunki ifodalanuvchisi bo'lmasa belgi haqida gapirib bo'lmaydi» [V.N.Migirin 1973: 22].

Fonema nafaqat til birliklari uchun, balki nutq birliklari uchun ham ularning murakkab sistemalari shakllanishida qatnashuvchi faol element ekanligini alohida e'tirof etmoq lozim. Bu esa, o'z navbatida, fonema morfema va so'zlarning tovush qobig'ini tashkil etibgina qolmay, gap, hatto matn shakllanishida ham, ularning umumiy tovush kompleksini vujudga keltiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, Blumfild doimiy ravishda to'xtovsiz ravishda sodir bo'luvchi tovush o'zgarishlari til taraqqiyotining asosini tashkil etishini alohida ta'kidlaydi.

Tilning fonetik sathi eng barqaror sath hisoblanadi. Ming yillarda ham sath birliklari tarkibida o'zgarish bo'lmaydi. Leksik va grammatik sathlar tarkibida o'zgarishlar bo'lib turadi. Lekin fonetika o'ta barqarorligi bilan xarakterlanadi.

Tilni amaliyotda qo'llanilishida tovushlar va ulardagi o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Praga tilshunoslik maktabining taniqli vakillaridan biri I.Vaxik fonologik o'zgarish o'z-o'zidan sodir bo'lmasligini, buning uchun tilning katta birliklarida ehtiyoj sezilishini alohida ta'kidlaganini ko'ramiz.

Fonematik sathda o'zgarishlar soni boshqa sathlarga qaraganda kamroq, bu o'zgarishlar ham boshqa katta sathlarning bevosita ta'siri sabab hosil bo'ladi. Bundan ayyonki, fonematik sathdagi har bir o'zgarish boshqa birliklarga ham ta'sir o'tkazadi.

Yuqoridagi fikrlar ham fonematik sistemani mustaqil sath sifatida e'tirof etish mumkinligini dalillaydi. Fonematik sath birliklari til sistemasida ustparadigma yoki, boshqacha aytganda, makroparadigma holatida mavjud bo'lib, ular bir sathga birlashayotgan fonemalarning eng yuqori darajadagi paradigmasini tashkil etadi. Mazkur sath birliklarining bundan katta guruhlanishini taqozo etadigan paradigma mavjud emas.

Makroparadigma komponentlarining xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Bir xil funksional mavqeda bo'lib, o'zaro bir sathga birlashishi.
2. Gorizontaal qatorda sintagmatik munosabat tashkil etishi.

Har bir makroparadigma muayyan til yoki nutq birliklarinigina birlashtira oladi. Shu bois, fonematik sath makroparadigmasi ham faqat fonemalarning o'zaro birlashishi uchun makon bo'lishi mumkin. Aks holda, til hamda nutq sathlari birliklarining qorishib ketishiga yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Fonematik sath makroparadigmasi unlilar va undoshlar paradigmalariga, ular ham o'z navbatida boshqa mikroparadigmalariga bo'linadi. Unlilar paradigmasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bunda tilning gorizontaal va vertikal harakatiga qarab, ularning til oldi, til orqa unlilari paradigmalariga hamda yuqori tor unlilar, o'rta keng unlilar va quyi keng unlilar mikroparadigmalariga bo'linishini ko'ramiz. Undosh fonemalar ham hosil bo'lish o'rni, usuli va ovoz hamda shovqinning ishtirokiga ko'ra bir necha mikroparadigmaga bo'linishi kuzatiladi. Mazkur mikroparadigmalarining shakllanishi fonemalarning nutqda konkret qo'llanilishida namoyon bo'luvchi quyidagi oppozitsion holatlari bilan bevosita bog'lanadi: unli-undosh, shovqinsiz (sonor)-shovqinli, jarangli-jarangsiz, qattiq-yumshoq, lablangan-lablanmagan, til oldi-til o'rta-til orqa, burunlashgan-burunlashmagan, sirg'aluvchi-portlovchi, qisqa-cho'ziq va h.k.

E.Benvenist fonemalarda kuzatiladigan bu kabi holatlarni **merizmalar** deb ataydi. "*Merizma*" so'zi grekcha so'z bo'lib, "*qismlar orqali butun ifodalash*" ma'nosini anglatadi ya'ni butunning ikkita qarshilikdagi qismi birga kelgan holda butunni ifodalash uchun ishlatilishi. Merizmalar sath ichidagi sathni tashkil etadi. Chunki, merizmalar kombinatsiyasi fonemani beradi, fonema esa, o'z navbatida, merizmalarga bo'linadi. Masalan, **b** jarangli fonemasining so'z oxirida kelganda jarangsizlanishi, so'z o'rtasida kelganda sirg'aluvchi tovushga moyillik bildirishi, **a** va **u** fonemalarning qattiq va yumshoq variantlari, **i** fonemasining til oldi va til orqa shakllari borligi mazkur fonemalarning ichki farqlovchi belgilariga dalil bo'lishi mumkin. Fonemalarning differentsial belgilari haqida mulohaza yuritganida M.Qurbonova birgina **a** fonemasining o'zida qattqlik – yumshoqlik, kuchlilik – kuchsizlik, uzunlik – qisqlik kabi belgilarini kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi.

H.Jamolxonovning qayd etishiga ko'ra: «Fonemalarning farqlovchi (differentsial) belgilari ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan alomatlaridir. Masalan, «k» undoshi o'zining jarangsizligi bilan jarangli «g» dan ajralib turadi, demak, «k»ning jarangsizligi, «g»ning esa jaranglilik bu ikki fonemaning differentsial (farqlanadigan) belgilari sanaladi».

H.Jamolxonov shundan so'ng, fonemalarning differentsial belgilari ularning artikulyatsiyasiga bog'liq holda tarkib topishi ham mumkinligini «b» undoshining lab-lab undoshi, «d» undoshining til oldi (dental, ya'ni tish ishtirokida talaffuz etiluvchi) undoshi ekanligi kabi bir qator misollar orqali to'g'ri tavsiflaydi. Biroq, bu o'rinda shuni ham aytish lozimki, fonemaning differentsial belgilarini turli fonemalarda emas, faqat bir fonema misolida ham kuzatish mumkin. Buning dalilini yuqorida biz keltirgan b, a, u, n kabi fonemalarning artikulyatsion xususiyatlarida ko'rib o'tdik. Biroq,

fonemani o'zidan katta birliklar – morfema hamda so'z uchun qurilish materiali sifatida o'rganganimizda, mazkur merizmalarning funksional qiymatlari ustuvor ahamiyat kasb etmaydi.

Fonematik sath birliklari garchi o'zining alohida belgisiga ega bo'lmasada, barcha birliklar uchun qurilish materiali vazifasini bajaradi. X.Xayrullayev shu sababdan fonemani katta sath elementlari tarkibiga kira olish xususiyati bo'lganligi sababli ularga belgi maqomini bersa bo'ladi deydi.

Morfemaning lingvistik tavsifi. Morfema ham eng kichik bo'linmas til birligidir. Uning fonemadan farqi ifododalovchi va ifodalanuvchi xususiyatlarga egaligidir. Tilshunoslikda morfemaga turli yondashuvlar bo'lishiga qaramasdan, bularning hammasi morfema tilning eng kichik ma'noli birligi ekanligiga ittifoq qilishadi. Tilshunoslikka «morfema» termini dastlab I.A.Boduen de Kurtene tomonidan XX asrning boshlarida kiritiladi. I.A.Boduen de Kurtene: «Bog'lanishli nutq mustaqil gap yoki frazalarga, gaplar mustaqil so'zlarga, so'zlar morfologik bo'g'inlarga yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo'linadi», – deb yozgan edi. U morfemalarni “tilning eng kichik ma'noli birligi” deb e'tirof etdi va uning psixologik avtonomiyasiga urg'u berdi. Boduen psixologik avtonomiyaga ega, bo'linmaydigan so'zlar ya'ni o'zak va qo'shimchalarni morfemalar sifatida talqin qilgan. Garchi morfema atamasi XX asrda qo'llanilgan bo'lsa-da morfemalar haqidagi bahslar qadim zamonlardan beri mavjud. Milloddan avvalgi IV-V asrlarda yashagan yunon faylafuslari Aflotun va Aristotellar garchi morfema atamasini ishlatishmas-da, ularning til va ma'no xususidagi fikrlari zamonaviy tilshunoslikdagi nazariyalar uchun zamin yaratdi. Aflotun so'zlar va ularning ma'nolari o'rtasidagi munosabatni o'rgangan. U so'zlar o'zlari ifodalagan narsalar bilan tabiiy ravishda bog'langanmi yoki bu bog'lanish tasodifiymi deb bahslashdi. U morfemalarga alohida murojaat qilmagan bo'lsa-da, uning til belgilarining tabiati haqidagi fikrlari tildagi eng kichik ma'no birliklari haqidagi keyingi fikrlarga ta'sir qilgan. Aristotel ham “morfema” atamasini ishlatmagan bo'lsa-da, so'zlar va ularning qismlari ma'noni yetkazishda qanday ishlashi haqidagi tahlili morfologiyadagi asosiy g'oyalarga hissa qo'shgan. Ko'rib turganimizdek, morfemani tushunishga, uni o'rganishga bo'lgan harakatlar qadimdan bor bo'lgan. Aflotun va Aristotel kabi faylasuflarni ham tilshunoslikdagi morfema tushunchasi qiziqtirgan. Ularning til va ma'noga oid falsafiy izlanishlari morfemalar tushunchasini o'z ichiga olgan lingvistik nazariyalarni yanada batafsil ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Ferdinand de Sossyur “morfema” atamasini aniq ishlatmagan bo'lsa-da, uning faoliyati zamonaviy morfologik nazariyaga asos solgan. Uning tilning tuzilishi, belgilovchi va belgilanuvchilar o'rtasidagi munosabat haqidagi g'oyalari morfemalarni tushunishga ta'sir ko'rsatdi.

J.Vandries mustaqil ma'no anglatuvchi til elementlari o'rtasida munosabat o'rnatuvchi birliklarni morfema deb ataydi va ular jumlasiga tilning barcha yordamchi vositalarini hamda so'zlarning formal qismlarini kiritadi. L.Blumfild ta'limotida boshqa biror forma bilan fonetik-semantik jihatlariga ko'ra o'xshash bo'lmagan til formasini sodda forma yoki morfema, deb ataladi.

V.M.Solnsev biz yuqorida ko'rib o'tgan I.A.Boduen de Kurtene, J.Vandries, L.Blumfild kabi taniqli tilshunoslarning morfema haqida bildirishgan fikr va mulohazalarini o'rganishi jarayonida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

J.Vandries uchun eng muhimi morfemaning nomustaqil (yordamchi) xarakteridir.

L.Blumfild uchun morfemaning minimal xarakteri muhim bo'lib, bunda uning til sistemasidagi o'rni va boshqa birliklarga munosabati ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois L.Blumfild ta'limotida sodda va nomustaqil so'zlar ham, so'zning ma'noli qismlari ham morfema jumlasiga kiritiladi.

I.A.Boduen de Kurtene ham morfemaning minimal shaklli bo'lishini alohida qayd etadi. Biroq, bunda uning til sistemasida tutgan o'rni va boshqa birliklarga bo'lgan munosabati ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi. Boduen so'zning minimal ma'noli qismini morfema deb ataydi.

Morfema haqida yuqorida bildirilgan fikrlar ichidan L. Blumfildning mulohazalari morfemaning haqiqiy tabiatini ochib beradi. I.A.Boduen va J. Vanderiesning fikrlari nisbatan torroq bo'lib, morfemaning barcha xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

V.B.Kasevich morfemani minimal ma'noli birlik, minimal ma'noli belgi tarzida talqin etadi. U til materiali tahlilini deduktiv metod asosida olib borish lozimligini va bu jarayonda matnni segmentlash natijasida har biri o'zining ifodalanuvchisiga ega bo'lgan eng kichik ma'noli birliklar-morfemalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi. V.B.Kasevich morfemalarni ikki

katta guruhga bo'ladi: Mustaqil (leksik) morfemalar va yordamchi (grammatik) morfemalar. Masalan, *пука* so'zida *пук* mustaqil, *-a* esa yordamchi morfemadir.

V.B. Kasevich yordamchi morfemalar o'zlari bog'lanib kelayotgan o'zak morfemalarsiz qo'llana olmasligini va bunday vaziyat flektiv affikslarda ham, agglyutinativ affikslarda ham kuzatilishini eslatadi.

O'zbek tilshunosligida morfema atamasi XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. O'zbek tilshunosligida morfema xususida ikki xil qarash mavjud. Bir guruh olimlar morfemani so'zning tarkibiy qismi sifatida talqin qilishsa (M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. –Toshkent, 1978; Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1980; A.Hojiyev. O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi. –Toshkent, 2007; A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –Toshkent, 1985; Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent, 2006.), boshqa guruh olimlar esa morfemaga tilning eng kichik ma'noli birligi sifatida qaraydilar (N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizovlarning Umumiy tilshunoslik – Toshkent, 1979). Morfemani tilning eng kichik ma'noli birlik sifatida qarash, morfemaning barcha turlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, A.Abduazizov morfemalarning har bir ko'rinishi *morf* deb atalishi va uning fonemalar kompleksi bilan, ba'zan esa, yagona fonema bilan ifodalanishi mumkinligi, morflarning yig'indisi morfemani tashkil etishi haqida ham atroflicha so'z yuritiladi. Shu bilan birga, har bir morf boshqa morfga nisbatan qo'shimcha distributsiyada turishi, bir pozitsiyada (qurshovda) ishlatilishi mumkin bo'lgan morflar *allomorflar*, ya'ni morfemaning variantlari ekanligi xususida ilmiy asosli fikr beriladi. Olim nol morfema haqida ham yetarlicha ma'lumot keltiradi. Biroq A.Abduazizov yordamchi so'z qolipidagi morfemalar haqida fikr bildirmaydi.

O'zbek olimlari ko'p tadqiqotlarda morfemaning faqat grammatik ma'nosiga urg'u berib, uning leksik ma'nosini nazardan chetda qoldirishadi. Lekin morfema o'z ichiga o'zak morfemani ham oladi, shunday ekan, leksik ma'noga ham urg'u berilishi kerak. A.Hojiyevning quyidagi fikri asosga egadir: «O'zak ifodalaydigan ma'no so'zga xos leksik ma'noning yadrosini tashkil etadi». Yasama so'zlarning o'zak qismini so'z tashkil etadi (uchuvchi, sotuvchi). Lekin, ularni ma'noli qismlarga bo'linmasligini hisobga olib, morfema deb atash mumkin. Ayni paytda, albatta, nol morfema e'tibordan chetda qolmoqda. Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o'zbek tili» deb nomlanuvchi darsligida morfema ma'no ifodalaydigan eng kichik segment birlik deb ta'riflanadi. Ammo olim o'zak morfemani e'tiborga olmayapti. Sh.Rahmatullayev: «Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma'no ifodalovchi birlik ekani ta'rifga kiritilishi lozim. Shunda «lug'aviy morfema», «o'zak morfema» tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi», –deb yozadi. Olim bu fikri bilan izohtalab masalaga oson yechim bermoqchi, nazarimizda. Lekin tilshunoslikdagi «o'zak morfema» atamasidan butunlay voz kechish mushkul.

Y. Tojiyev morfemaning til birligi ekanligini to'g'ri qayd etgan va shu bilan birga, affiks morfemalar ba'zi yasama so'zlarni hosil qilishda nutq birligini taqozo etish imkoniyatiga ham ega ekanligini alohida ta'kidlagan. Eng muhimi, olimning mulohazalarida ba'zi munozarali o'rinlar bo'lishiga qaramasdan, ayni paytda til bilan nutq hodisalari farqlab o'rganilgan.

Grammatik ma'no ifodalovchi, predlog, ko'makchi, bog'lovchi, yordamchi fe'l kabi o'zak morfema qolipida keluvchi elementlar ham borki, ular so'zlar (qo'shma gap tarkibida uning komponentlari) o'rtasida grammatik munosabat o'rnatishda faol qatnashadi. Mazkur elementlar ham morfemalardir, biroq ular faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

Morfema haqida tilshunoslikda turli xil, ba'zan qarama-qarshi fikrlar ham mavjudligini ko'ramiz. Biroq, mazkur qarashlarning ko'pchiligida morfema tilning bo'linmas, eng kichik ma'noli birligi tarzida talqin etiladi.

Qolip va uning lingvistik tavsifi. Lisoniy birlikning keyingi turi qolipdir. Qolip deganda yasama so'z, so'z birikmasi, frazalar va gaplar hosil qilishning ongimizdagi maxsus sxemalari tushuniladi. Grammatik qonuniyat va qoidalar faqat qoliplarda amal qiladi. Qolipdan tashqarida sintaktik aloqa haqida gap bo'lishi mumkin emas. Masalan, leksemani Grammatik jihatdan shakllantiradigan qolipdir. Ikki xil qoliplar bo'lishi mumkin: a) so'z yasash qolipi; b) sintaktik (so'z birikmasi va gap hosil qilish) qolip. So'z yasash qolipidan kam foydalanamiz. Chunki biz har doim ham so'z yasayvermaymiz. Qolip ham boshqa lisoniy birliklar kabi UMIS tabiatli bo'ladi. Masalan, nutqdagi

cheksiz yasama soʻz (masalan, taqachi, nonchi kabi bitta, bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, [narsa/buyum oti + chi = shu narsa/buyum bilan shugʻullanuvchi kishi], yaʼni soʻz yasash qolipining nutqiy hosilasi. Gazetani oʻqimoq nutqiy hosilasi boshqa oʻziga oʻxshash cheksiz soʻz birikmalari (olmani termiq, paypoqni kiymoq kabi.) bilan birgalikda [ot, tushum kelishigi + Feʼl = vositasiz toʻldiruvchili feʼlli birikma] lisoniy sintaktik qolipi asosida hosil qilingan nutqiy birlik. Qolip miqdor jihatidan cheklangandir. Masalan, oʻzbek tilida soʻz birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz soʻz birikmasi hosil qilinadi Qolip ham boshqa lisoniy birliklar kabi shakl va mazmun yaxlitligidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Xayrullayev X.Z. “Tilshunoslik nazariyasi”. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. – 2022
- Dutra, J. (2022, June 12). What did Socrates, Plato, and Aristotle think about wisdom? The Collector. Retrieved from <https://www.thecollector.com/socrates-plato-aristotle-wisdom/>
- Блумфильд Л. Язык. – М., 2002.
- Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent, 2005
- Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (сода гап синтаксиси учун материаллар). –Тошкент, 2002
- Xoliyorov Oʻ.M. “Hozirgi oʻzbek tili” – Termiz: - 2017.
- Вахек И. Пражские фонологические исследования сегодня// Пражский лингвистический кружок. –М., 1967. – С.106.
- Бодуэн де Куртенэ, Иван Александрович // Новая иллюстрированная энциклопедия Кн.3. Би-Ве. — М.: Большая Российская энциклопедия, 2003. — 256 с.: ил. — С. 27 — 28. — ISBN 978-5-85270-195-4 (кн. 3), ISBN 978-5-85270-218-0
- E. F. K. Koerner, Ferdinand de Saussure: Origin and Development of His Linguistic Thought in Western Studies of Language. A contribution to the history and theory of linguistics, Braunschweig: Friedrich Vieweg & Sohn [Oxford & Elmsford, N.Y.: Pergamon Press], 1973.
- Kahrs, Eivind (1998), Indian Semantic Analysis: The Nirvacana Tradition, Cambridge University Press, ISBN 9780521631884
- Kahrs, Eivind (1998), Indian Semantic Analysis: The Nirvacana Tradition, Cambridge University Press, ISBN 9780521631884

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000